



TILNI O‘ZLASHTIRISH JARAYONINING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Nuraddinova Oydin Rasul qizi

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili
yo‘nalishi 1-kurs talabasi. oydinnuraddinovarasulqizi@gmail.com*

Ilmiy rahbar: Xudoyqulova Feruza Xolovna

Annotatsiya. Ushbu maqolada psixolingvistik va neyrolingvistik tadqiqotlarning til o‘qitish metodikasi bilan uzviy bog‘liqligi yoritiladi. Tilning inson psixikasi, tafakkuri, idroki va nutqiy faoliyati bilan chambarchas aloqada ekanligi asoslab beriladi. Maqolada nutq ko‘nikmalarining shakllanishi murakkab psixokognitiv jarayon sifatida talqin qilinib, tilni o‘qitishda kommunikativ va kognitiv yondashuvlarning ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, psixolingvistik va neyrolingvistik tadqiqotlar asosida o‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish, motivatsiyani oshirish va ijobiy nutqiy muhit yaratish zarurligi ta’kidlanadi. Maqola zamonaviy til ta’limi samaradorligini oshirishda psixolingvistikaning nazariy asos sifatidagi o‘rnini ochib beradi.

Kalit so‘zlar. psixolingvistika, neyrolingvistika, til o‘qitish metodikasi, nutqiy faoliyat, tafakkur, kognitiv jarayonlar, kommunikativ yondashuv, til ta’limi, nutq ko‘nikmalari, psixologik omillar.

Аннотация. В данной статье освещается тесная взаимосвязь психолингвистических и нейролингвистических исследований с методикой преподавания языка. Обосновывается положение о том, что язык находится в неразрывной связи с психикой человека, его мышлением, восприятием и речевой деятельностью. В статье формирование речевых навыков рассматривается как сложный психокогнитивный процесс, а также подчёркивается значимость коммуникативного и когнитивного подходов в



обучении языку. Кроме того, на основе психолингвистических и нейролингвистических исследований акцентируется необходимость учёта индивидуальных психологических особенностей обучающихся, повышения их мотивации и создания позитивной речевой среды. Статья раскрывает роль психолингвистики как теоретической основы повышения эффективности современного языкового образования.

Ключевые слова. психолингвистика, нейролингвистика, методика преподавания языка, речевая деятельность, мышление, когнитивные процессы, коммуникативный подход, языковое образование, речевые навыки, психологические факторы.

Abstract: This article discusses current issues of psycholinguistic research and psycholinguistics, including the relationship of the language learning process with the human psyche, mental processes (speech, thought, perception), the fact that psycholinguistics is one of the main branches of neuropsychology, and the role of the nervous system in the formation of speech skills. This article is aimed at introducing the reader to the importance of psycholinguistic research and, before learning or teaching a language, introducing a thorough understanding of psychological and cognitive processes such as how speech skills and thinking are formed.

Keywords: psycholinguistics, neuropsychology, linguistics, language, consciousness, thinking, thought, speech activity, psycholinguistic research, polyglot, psychology, neurolinguistic research.

Insoniyat bilan birga paydo bo'lgan til uning hayotida eng muhim rol ni o'ynab kelgan va bundan keyin ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Til, eng avvalo, inson va uning tafakkuri shakllanishidagi zaruriy shartlardan biridir. Aniq nutqning paydo bo'lishi insonning bilish, idrok qilish jarayonlarini tamoman o'zgartirib yubordi. Til tufayli inson tafakkuri boyidi, moddiy dunyodagi narsa va predmetlarni ongi orqali idrok qilish, ular ustidan mulohaza yuritish, ularga oid fikrlarini so'z



bilan ifodalash imkoniga ega bo'ldi. Til ilk boshdan e'tiboran hech bir narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan xizmatni, ya'ni inson tafakkurida umumlashtiruvchi vazifani bajarib kelgan. Lingvist Benjamin Li Uorfning ta'kidlashicha, til fikrlash usulini belgilaydi. Uorfning lingvistik faraziga muvofiq turli tillar haqiqatni turlicha idrok etadi: "Tilning o'zi insonning asosiy g'oyalarini shakllantiradi".

Har qanday tilni o'zlashtirishga bo'lgan qobiliyat tafakkurga ta'sir ko'rsatadi. Tilning kengayishi, boyishi fikrlash qobiliyatining kengayishi demakdir. Kanada, Shveysariya, Isroil, Janubiy Afrika va Singapurda ikki tilni o'zlashtirgan bolalar zehni o'tkirligini tekshirish uchun o'tkazilgan testlar natijasi shuni ko'rsatdiki, ularning zehni o'tkirligi bir tilni biladigan bolalar zehnidan ustunlikni namoyon etgan. Bixevioristik oqim namoyandalaridan biri Skinner biz tilni imitatsiya, ya'ni taqlid qilish va uni mustahkamlashning ma'lum tamoyillari vositasida o'rganamiz, deb tushuntirgan. Lingvist Noan Xomski Skinnerning fikrlariga e'tiroz bildirib, bolalar biologik va fiziologik jihatdan so'zlarni o'rganish va grammatikadan foydalanishga tayyor bo'ladilar, deydi. Biroq grammatikani o'zlashtirishga inson bir necha yillar davomida vaqt sarflashini inobatga oladigan bo'lsak, uning fikrlari o'ta bahsli va tanqidiydir.

Psixologiyada insonning tafakkur faoliyati haqida aytilganda hissiy bilish bilan birga til va nutqning o'zaro bog'liqligi alohida ko'rsatib o'tiladi. Demak, tafakkurning moddiy qobig'i tildir. Tafakkur – o'ylash, muhokama qilish, voqelikni anglash, tasavvur qilish, unga baho berish, fikrlash qobiliyati. Tafakkurni so'z boyligi vositasida ifodalashda asosiy vazifani til bajaradi.

Til nasldan naslga, avloddan avlodga o'tadigan irsiy hodisa emas, aksincha, til jamiyat taraqqiyotining mahsulidir. Bolaning qaysi tilde so'zlay boshlashi uni o'rab turgan ijtimoiy muhitga bog'liq. Misol uchun, ingliz bolasi go'dakligidan xitoyliklar orasida tarbiyalansa, u faqat xitoycha so'zlashib, o'z ona tilini bilmasligi mumkin. So'nggi davrlarda psixologiya, nevrologiya va tilshunoslik fanlarining oraliq'ida neyrolingvistika nomi bilan yuritiluvchi yangi fan tarmog'i



vujudga keldi. Bu fan nutqiy faoliyat bosh miyaning mahsuli ekanligi, miya kasallanishining nutqiy faoliyatga ta'siri masalalarini o'rganadi. Neyrolingvistikaning o'rganish obyektlaridan biri afaziya (gapira olmaslik, nutq qobiliyatining buzilishi), ikkinchisi, neyrolingvistik dasturlash (NLP). Neyrolingvistik tadqiqotga ikki til va ko'p til egalarining (zullisonayn va poliglottlarning) miyasi zararlanishini o'rganishni misol qilib keltirishimiz mumkin. Neyrolingvistik dasturlashni bizning tilimizga tarjima qilsak, "nervlar", "til" va "dasturlash" degan ma'noni beradi. Bugungi kunda gipnozchilar va manipulyatsiya texnikalarini o'rgangan kishilar neyrolingvistik dasturlashdan foydalanib o'z maqsadlariga yetmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. – Т.:Ўқитувчи, 1996.
2. Головин Б.Н. Введение в языкознаниею –М.:Высшая школа, 1977.
3. Махмудов Н. Тил. – Т.:Ёзув 1998.
4. А.К.Шамшетова, Р.Н. Мелибаева, Х.Е.Усманова, И.О.Хайдаров. Умумий психология. Ўқув қўлланма. –Т.: “Баркамол фойз медиа”, 2018. -272 б.
5. Shaxlo Mahmudova. [Standart til birliklarini o'rgatishda talabalarning o'quv-biluv motivatsiyasini rivojlantirish](#). 2025/1/30. Журнал TAMADDUN NURI JURNALI. Том-1.Номер-64. Страницы.94-97.
6. Худайкулова Феруза Х. Организация творческой работы на уроках русского языка- Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 2024. Том 6. Номер 3. Стр.37-41.
7. Худайклова Ф.Х. Родительский комитет в школе. Ташкент. УЗ. НИИПН. 2011г.
7. Худайкулова Ф.Х. Применение интерактивных способов на занятиях русского языка в школах. ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ, 2025. 62-1 (том 2).



8.Худайкулова Ф.Х. Методы обучения русскому языку национальных группах. Наука и инновационные идеи в мире, 2024. Т.39. Номер-2. Стр.50-54.

9.Худайкулова Ф.Х. Работа родительского комитета в школе. Журнал. Начальная школа, 2011. №9. Стр.98.

10 Feruza Xudayqulova. Проблемы и применение технологии преподавания.2024/1/12. Журнал Modern Science and Research. Том-3. №-1.Стр. 1-5.

11. Ф.Х.Худайкулова . Актуальность инновационных технологий в современной образовательной системе. 2021/10. Журнал. Published by: TRANS Asian Research Journals AJMR: Asian Journal of Multidimensional Research. Том-10. Номер-10.

12. Ф.Х Худайкулова Методы обучения русскому языку национальных группах. 2024. Журнал. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. Том-39. Номер-2. Страницы-50-54.

13. ФХ Худайкулова. Инклюзивное образование и толерантность в образовательной среде: контроль знаний .2025/10/22 . KONFERENSIYA. Том-1. Номер-1. стр. 258-262.

14.Ф.Х.Худайкулова. Методы обучения русскому языку национальных группах. Наука и инновационные идеи в мире, 2024. Т.39. Номер-2. Стр.50-54.

15.Худайкулова Ф.Х. Работа родительского комитета в школе. Журнал. Начальная школа, 2011. №9. Стр.98.